



STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASH, KENG KO‘LAMLI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-iyun kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Koreya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Pak Chin boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi do‘stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, keng ko‘lamli hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy-texnik sohalarda kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida tashqi ishlar vaziri Pak Chin mamlakatimiz yetakchisiga Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok

Yolning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda do‘st xalqlarimizni chuqur tarixiy rishtalar, o‘xshash mentalitet, an‘analar va ma‘naviy qadriyatlar bog‘lab turgani alohida ta‘kidlandi.

Har doimgidek yaqin va konstruktiv siyosiy muloqotni, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon savdo tashkiloti doirasidagi o‘zaro ko‘makni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ham ko‘rib chiqildi. Prezidentimiz ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik masalalariga alohida to‘xtaldi.

O‘tgan yili O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi tovar almashinuvi 24 foizga oshdi. Koreya kompaniyalaridan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7 milliard dollardan ortdi.

Umumiy qiymati 5 milliard dollar bo‘lgan istiqbolli loyihalar portfli “yashil”



energetika, raqamli texnologiyalar, mashinasozlik, kimyo sanoati, elektrotexnika va to‘qimachilik tarmoqlari, infratuzilmaviy rivojlanish, shaharsozlik va ko‘plab boshqa yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Mamlakatimiz O‘zbekistonning muhim investitsiyaviy va texnologik hamkorlari bo‘lgan Janubiy Koreya yetakchi kompaniyalari bilan kooperatsiya aloqalarini kuchaytirishdan manfaatdor ekani ta‘kidlandi.

Katta yoshdagilar uchun to‘rtinchi darajali ko‘p tarmoqli shifoxona, onkologiya klinikasi, farmatsevtika klasteri va tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasasini barpo etish bo‘yicha ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega loyihalarni jadallashtirish zarurligi qayd etildi.

Yarimo‘tkazgichlar innovatsion klasterini barpo etish hamda Nodir metallar va qotishmalar markazi faoliyatini rivojlantirish

ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olindi.

O‘tgan yilda O‘zbekistonda istiqomat qilayotganining 85 yilligini nishonlagan koreys millatiga mansub ko‘p sonli yurt-doshlarimizni yanada qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, Toshkent shahridagi Koreys madaniyati va san‘ati uyi faoliyatini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘ZA

JAHON BANKI MAMLAKATIMIZDAGI ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLAR DASTURINI IZCHIL VA HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHGA TAYYOR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-iyun kuni Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha vitse-prezidenti Antonella Bassanini qabul qildi.

Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni samarali ilgari surishda O‘zbekiston bilan Jahon banki guruhi o‘rtasidagi keng ko‘lamli strategik hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Antonella Bassanini yuksak darajasini yuqori baholadi hamda Jahon banki mamlakatimizdagi ortga qaytmas islohotlar dasturini izchil va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini tasdiqladi.

2030-yilga qadar muddatga belgilangan maqsadli vazifalarga muvofiq kambag‘allikka qarshi kurashish, qishloqlar va o‘rta shaharlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xotin-qizlar va yoshlar bandligiga ko‘maklashish, sog‘liqni saqlash va ta‘limni isloh qilish loyihalari diqqat markazida turibdi.

“Yashil” energetikani joriy etish, yer islohotini, hududlarni kompleks rivojlantirish va davlat korxonalarini xususiy lashtirish dasturlarini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy infratuzilmaviy loyihalarni ilgari surish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Iqlim o‘zgarishi va rivojlanish bo‘yicha Mamlakat hisobotini tayyorlash yakunlanmoqda. Bank ishtirokida

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MARKAZIY OSIYO VA YEVROPA ITTIFOQI YETAKCHILARINING IKKINCHI SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” formatidagi navbatdagi oliy darajadagi uchrashuvda ishtirok etish uchun 2-iyun kuni amaliy tashrif bilan Cho‘lponota shahrida (Qirg‘iz Respublikasi) bo‘ladi.

Tadbirda mintaqamiz davlatlarining rahbarlari va Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishel ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Kun tartibidan Markaziy Osiyo mamlakatlarining Yevroittifoqi bilan konstruktiv muloqotini yanada rivojlantirish va amaliy hamkorligini kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

“GSP+” tizimidan foydalangan holda o‘zaro savdoni ko‘paytirish, investitsiya va innovatsiya loyihalari uchun qulay sharoit yaratish va ularni ilgari surishga ko‘maklashish, “yashil” energetikani joriy etish, Transkaspiy

xalqaro transport yo‘lagi salohiyatini ro‘yobga chiqarish, raqamli o‘zaro bog‘liqlik, ekologiya, turizm, madaniyat va boshqa yo‘nalishlardagi sheriklikning dolzarb jihatlari diqqat markazida bo‘ladi.

Sammit doirasida qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazilishi ham rejalashtirilgan.

Qayd etish joizki, bunday formatdagi birinchi mintaqaviy uchrashuv 2022-yil 27-oktabr kuni Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan edi.

O‘ZA



BIZ VA DUNYO

MARKAZIY OSIYO — YEVROPA ITTIFOQI:

MINTAQA MAMLAKATLARI TARAQQIYOTI UCHUN MUSTAHKAM ZAMIN

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-iyun kuni Cho‘lponota shahrida (Qirg‘iziston) bo‘lib o‘tadigan davlat rahbarlarining Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi formatidagi ikkinchi sammitida ishtirok etadi.

Ushbu formatdagi birinchi uchrashuv 2022-yil 27-oktabr kuni Ostona shahrida Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston rahbarlari hamda Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishel ishtirokida bo‘lib o‘tgan edi.

Davomi 2-betda



BUYUK O‘ZBEK YO‘LI



Adolatli IJTIMOIY SIYOSAT

mehrli jamiyatimizning yangi qiyofasiga asos bo‘lmoqda

“Inson — jamiyat — davlat” tamoyili asosida har bir insonga e‘tibor oila, xonadon, mahalladan boshlanib, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish ma‘naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Hozirgi kunda adolatli ijtimoiy yo‘naltirilgan jamiyat qurish sari intilayotgan mamlakatimizda insonga munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda yurtimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirildi. Buning uchun aholining yordamga muhtoj, zaif qatlamini har tomon-

lama qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarimizni ishsizlikdan himoya qilish, bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish hamda ayrim sabablarga ko‘ra vaqtincha ishsiz bo‘lganlarni kasbga tayyorlash borasida ijtimoiy yordam va xizmatlar sifatini yaxshilash sohasida juda ko‘p ishlar qilinmoqda.

Davomi 3-betda



KEYTERING

o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda

— 23 yildan buyon boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiman, — deydi Nukus shahridagi 11-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi muallimasi Roziya Qodirbergenova. — Tajribamdan bilamanki, bir sinfda har xil qobiliyati bolalar o‘qiydi. Shuning uchun ularning har biri bilan alohida ishlash lozim. Ayni paytda sinfmda 30 nafar o‘quvchi bor. Davlatimiz tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta‘minlash tizimi yo‘lga qo‘yilgani juda ajoyib ish bo‘ldi.

Davomi 5-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



BIZ VA DUNYO

MARKAZIY OSIYO — YEVROPA ITTIFOQI:

MINTAQA MAMLAKATLARI TARAQQIYOTI UCHUN MUSTAHKAM ZAMIN

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari Ostona shahrida oʻtkazilgan uchrashuvda mintaqamiz bilan Yevropa Ittifoqi oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikni izchil chuqurlashtirish tarafdori ekanini, mintaqalararo hamkorlikning qator ustuvor yoʻnalishlariga alohida toʻxtalib, ikki mintaqa davlatlarining tinchligi, barqaror rivojlanishi va farovonligi manfaatlarini yoʻlida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formatida samarali muloqot uchun Oʻzbekiston ochiq, tizimli va izchil hamkorlikka sodiqligini yana bir bor tasdiqladi.

Unda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yevropa Ittifoqining oʻtgan davrdagi hamkorligi yakunlari sarhisob qilindi hamda umumiy qadriyatlar va oʻzaro manfaatlar asosidagi sheriklikni davom ettirishga tayyor ekanliklari bildirildi.

Yevropa Kengashi Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining mintaqaviy hamkorlik va oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlashga qaratilgan saʼy-harakatlarini olqishladi. Oʻz navbatida, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari YIning pandemiyadan keyin iqtisodiy rivojlanishni ragʻbatlantirish va uning salbiy oqibatlari ragʻbatlantirishga qoʻshgan hissasini yuqori baholadi. Tomonlar biznes yuritish uchun qulay muhit yaratilishi mintaqaga xorijiy sarmoya, mintaqadagi oʻzaro bogʻliqlik va savdo hajmini yanada oshirishini taʼkidladi.

Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari va Yevropa Kengashi rahbarining bu galgi uchrashuvida mintaqalararo hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalarini, dolzarb xalqaro muammolarni muhokama qilish rejalashtirilgan.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlari va YI davlatlari oʻrtasida diplomatik munosabatlarni oʻrnatilganidan buyon mintaqalararo hamkorlik koʻplab yoʻnalish hamda tarmoqlarda rivojlanib, bugungi kunda farovonlik va barqarorlik yoʻlida koʻp tomonlama sheriklik namunasi boʻlib xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston mazkur hamkorlik formatida faol ishtirok etmoqda. Jumladan, “Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo” TIV rahbarlarining uchrashuvlari muntazam oʻtkazib kelinmoqda: xususan, 18-uchrashuv 2022-yil 17-noyabr kuni Samarqand shahrida boʻlib oʻtdi. Ertasi kuni u yerda birinchi “YI — Markaziy Osiyo” konferensiyasi yuqori darajada tashkil etildi.

Ushbu tadbirlarda Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti, Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati boʻyicha Oliy vakili Jozep Borrel ishtirok etdi hamda mamlakatimizga tashrifi davomida Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi. Muloqot chogʻida Jozep Borrel Oʻzbekistonning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatini olqishladi va bu borada Markaziy Osiyo davlatlari katta muvaffaqiyatga erishganini taʼkidladi. Uning aytishicha, Yevropa Ittifoqi mintaqa davlatlari bilan siyosat, savdo, sarmoya, raqamlashtirish, iqlim oʻzgarishi va atrof-muhit, fan va taʼlim sohalarida hamkorlikni yanada kengaytirish niyatida.

2013-yildan boshlab har yili “YI — Markaziy Osiyo” oʻrtasida siyosat va xavfsizlik boʻyicha yuqori darajadagi muloqot ham oʻtkazib kelinmoqda. Oxirgi uchrashuv 2022-yil 17-may kuni Brusselda boʻlib oʻtgan.

Oʻzbekiston va Yevropa Hamjamiyatlari oʻrtasidagi munosabatlarni 1992-yil 15-aprelda oʻzaro anglashuv Memorandumining imzolaniishi bilan yoʻlga qoʻyilgan. 1994-yil 16-noyabrda diplomatik munosabatlarni oʻrnatildi. 1995-yildan beri Brusselda Oʻzbekiston elchixonasi faoliyat koʻrsatib kelmoqda va ayni paytda u YI huzuridagi missiya vazifalarini ham bajaradi. 2011-yilda Toshkentda Yevropa Ittifoqining diplomatik vakolatxonasi ochildi.

Oʻzaro munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asosi 15 ta hujjatdan iborat boʻlib, ular Sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim (SHHTB), Atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasidagi hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim, YIning

Oʻzbekistondagi diplomatik vakolatxonasini tashkil etish toʻgʻrisidagi bitim, Energetika sohasida hamkorlik toʻgʻrisidagi memorandum, SHHTBga oʻzgartishlar kiritish toʻgʻrisidagi bayonnoma va Toʻqimachilik mahsulotlarining ikki tomonlama savdosi toʻgʻrisidagi bitimdan iborat.

2022-yil iyul oyida Oʻzbekiston va YI oʻrtasida uch yillik muzokaralar yakunlandi va Brusselda 20 yildan ortiq vaqt davomida amalda boʻlgan SHHTB oʻrnini bosuvchi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim (KSHHTB) matni paraflandi.

Oʻzbekiston — YI oʻrtasidagi Sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimga muvofiq oltita qoʻshma organ — Hamkorlik kengashi, Hamkorlik qoʻmitasi, Parlamentlararo hamkorlik qoʻmitasi, Iqtisodiyot, savdo va investitsiyalar boʻyicha quyi qoʻmita, Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va tegishli masalalar boʻyicha quyi qoʻmita, Rivojlanish maqsadlarida hamkorlik boʻyicha quyi qoʻmita tashkil etildi.

YI yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar strategiyasini qatʼiy qoʻllab-quvvatlaydi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev va Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishelning 2022-yil 28-oktabr kuni Toshkentda boʻlib oʻtgan uchrashuvida maʼlum qilindi. Samimiy va doʻstona ruhda oʻtgan muzokaralar chogʻida yetakchilar keyingi

yillarda Oʻzbekiston bilan Yevropa Ittifoqi oʻrtasidagi munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarilib, keng qamrovli tus olganini tasdiqladi.

Joriy yil 14-aprel kuni Toshkentda Oʻzbekiston Prezidentining Yevropa Ittifoqi inson huquqlari boʻyicha maxsus vakili Imon Gilmor va Markaziy Osiyo boʻyicha maxsus vakili Terxi Xakala bilan uchrashuvida ham YIning qoʻllab-quvvatlashi bildirildi. Uchrashuvda Yevropa tomonidan Oʻzbekistonning inson huquqlarini taʼminlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, gender tengligi, majburiy mehnatga barham berish va boshqa sohalaridagi yutuqlarini yuqori baholadi.

Oʻzbekiston va YI davlatlari oʻrtasidagi savdoda eng qulay davlat rejimi oʻrnatilgan. Soʻnggi yillarda Yevropa tomonidan taqdim etilgan “GSP+” shartlari tufayli oʻzaro savdo hajmi va muvaffaqiyatli investitsiya loyihalarini sonining dinamik oʻsishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, madaniy-gumanitar almashinuv sohasida ham muhim tadbirlar oʻtkazilmoqda.

Taʼkidlash kerakki, 2022-yilda YI mamlakatlari bilan umumiy savdo hajmi 4,5 milliard dollarni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilning yanvar-mart oylarida bu koʻrsatkich 1,8 milliard dollardan oshdi.

Oʻzbekistonning YIdagi asosiy savdo hamkorlari Germaniya, Chexiya, Litva, Latviya, Italiya, Fransiya, Niderlandiya va Polsha davlatlari hisoblanadi.

“OʻTGAN VA JORIY YILDA YEVROPADA OʻZBEKISTONNING TARIXIY-MADANIY MEROSIGA BAGʻISHLANGAN KOʻRGAZMALAR KATTA MUVAFFAQIYAT BILAN TASHKIL ETILDI. OʻTGAN YILNING NOYABR OYI OXIRIDA IKKITA KOʻRGAZMA PARIJDAGI LUVR MUZEYIDA VA ARAB DUNYOSI INSTITUTIDA OCHILDI. BIRINCHI KOʻRGAZMA KOʻPROQ ARXEOLOGIK TOPILMALARGA BAGʻISHLANGAN BOʻLSA, IKKINCHISIDA XIX VA XX ASRGA OID TOʻQIMACHILIK, ZARGARLIK BUYUMLARI, GILAMLAR NAMOIYISH ETILDI. ARAB DUNYOSI INSTITUTIDAGI KOʻRGAZMA JORIY YILNING IYUN OYI OXIRIGACHA OʻZ ISHINI DAVOM ETDIRADI.



MAVSUM

FERMERNING XIRMONI DONGA TOʻLADI

Bu yil Qashqadaryoda gʻalla oʻrimi har yilgidan bir oz oldin boshlandi. Ob-havoning oʻzgarishi, quyosh taftining erta koʻtarilishi natijasida bir hafta oldin boshlangan mavsum bugun ayni avj pallasga kirdi. Hozir vohada xalq rizqi boʻlgan bugʻdoyni oʻz vaqtida, nest-nobud qilmay oʻrib olish uchun kombaynlar tinimsiz harakatda.



Yer haydasang, kuz hayda deganlaridek, xazonrezgi vaqtida yerga urugʻ sochgan mirishkorlarimiz mehnati samarasi bugun natija bermogʻda. Gʻalla omborlariga kirib kelayotgan yuk mashinalarining oxiri koʻrinmaydi. Bundan fermer va dehqonlarning koʻzi quvnab, hosilning choʻgʻi balandligidan xursand boʻlmoqda.

Bobur Bahridinov Kasbi tumanida bir necha yillardan beri fermerlik qilib keladi. “Fazliddin” fermer xoʻjaligi rahbari sifatida ish boshlagandan beri biror marta belgilangan rejani bajarmay qolgan emas. Bu yil ham 60 gektar yerining 15 gektariga gʻalla, qolganiga paxta ekan. Kuni kecha Kasbi tumanida birinchilardan boʻlib bugʻdoyzoriga oʻrimga tushdi. Bu yil 55 tonna gʻalla oldi.

— Ilgari tinimsiz mehnat qilib, gʻallani yetishtirib, oʻrim mavsumi boshlangach, fermerning dalasiga ega koʻpayib qolar, bizni birov tinglamasdi ham, — deydi B.Bahridinov. — Hatto oʻzimiz uchun bir kilogramm bugʻdoy ololmay qolgan kunlarimiz boʻlgan.

Shartnomada koʻrsatilgan narx esa xarajetni ham qoplamasdi. Bugun barchasi koʻngildagidek. Narx ham yuqoriladi. Bir soʻz bilan aytganda, mehnatimiz samarasini oʻzimiz koʻrishga imkoniyat yaratildi. Natijada roʻzgʻorimiz but, yashash tarzimiz yaxшилandi. Oʻzimiz uchun kerakli imkoniyatlarni yarataymiz. Farzandlarimizni oliyogʻohlarda oʻqitib, yangi mashinalar oʻlyapmiz. Dalada oʻtgan zahmatli kunlarimizning rohatini koʻrish naqadar baxt ekanini his qilyapmiz.

Vohada Kasbi tumani gʻalla yetishtirish boʻyicha yuqori oʻrinlarda turadi. Bu yil ham tumanda 14 200 gektarga bugʻdoy ekilib, jami 53 ming tonna, yaʼni 31 ming tonna davlat shartnomasi uchun, qolgani uchta klasterlarga yetkazib beriladi. Bugun tuman dalalariga qishloq xoʻjaligi texnikasi jalb etilgan boʻlib, asosiy maqsad oʻz vaqtida mavsumni yakunlashga qaratilgan.

— Oʻtgan yili ham belgilangan shartnomaviy rejani ortigʻi bilan bajargandik, — deydi Kasbi tumani hokimi oʻrinbosari Ilyos Qurbonov.

— Bu yil ham hosildorlik yomon emas. Nasib etsa, maqsadimizga erishamiz. Bunday bemalol gapirishimga asos bor. Keyingi yillarda dehqon-fermerlarimizning dalaga, oʻz ishiga mehri ancha oshdi. Misol uchun, oldinlari qoʻshni fermerning rejasi past bajarilsa ham, yonidagisining hosili omborga yigʻishtirib ketilgan. Hozir rejadan qancha oʻrtishidan qatʼi nazar, fermer ixtiyorida qolmoqda. Narxi ham oʻtgan yildan boshlab uch ming soʻmdan belgilandi. Bu esa peshona terining mahsuli, halol mehnatning ragʻbati.

Viloyat qishloq xoʻjaligi boshqarmasi bergan maʼlumotlarga koʻra, bu yilgi mavsumda voha mirishkorlari 137500 gektarga ekilgan bugʻdoydan davlat buyurtmasi uchun jami 350 ming tonna hosil olishni maqsad qilgan. Demak, tez orada xirmonlar donga toʻlib, koʻzlangan marra zabt etilgani haqida xushxabarlar tarqaladi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



BOZOR TAMOIYILLARI



QULAY SHART-SHAROIT VA DOʻSTONA ALOQALAR

Asta-sekin kunlar isishi bilan yurtimizda dala yumushlari ham koʻpayadi. Meva va poliz ekinlari pishib yetila boshlaydi. Bu esa ana shu bogʻ va dala neʼmatlarini birinchilardan boʻlib tashqi bozorlarga sotish imkoniyatimizni kengaytirish barobarida, xorijiy davlatlar ishbilarmonlarining biz bilan hamkorlikda ishlash istagini oshiradi. Jumladan, Quva tumani “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan “777-Kubbo vitamini” Oʻzbekiston — Qozogʻiston qoʻshma korxonasi shunday xohish, qolaversa, mamlakatimizda chet ellik sarmoyadorlarga yaratib berilayotgan qulay shart-sharoit mevasidir.

Quvada hozir gilos mavsumi boshlangan. Mirishkor bogʻbonlar saʼy-harakati tufayli yetishtirilgan sarxil mevalar ichki bozorga chiqarilishi bilan birga, tashqi bozorga eksport qilinmoqda. Oʻtgan mavsumda qoʻshma korxona tomonidan 60 tonnadan ortiq gilos eksporti amalga oshirildi. Joriy mavsumdagi rejalar bundan ham yuqori.

Yangilikka intilish, havas bilan mehnat qilish quvalik mirishkorlarning qon-qoniga singib ketgan. Qayerga bormang, me-

va-cheva narxi, yangi navlar, parvarish usullari suhbat asosini tashkil etadi. Bogʻlar, yoʻl boʻylarida xushtam mevalardan istagancha tatib koʻrish mumkin. Sizga peshvoz chiqqan shirinsoʻz sohibkorlar, “Kelinglar, yeb koʻrish bepul”, deya ochiq chehra bilan bogʻ va tomorga tomon boshlaydi.

Bogʻbonlar mevalarning nafaqat taʼmi va sifati, balki uzoq vaqt saqlanishiga ham eʼtibor qaratmoqda. Shu maqsadda meva saralash, qadoqlash, saqlash borasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish



kinofestivalini oʻtkazib keladi. Ushbu festival bugungi kunda Oʻzbekistondagi eng koʻzga koʻringan va yirik madaniy loyihalaridan biriga aylangan. Unda har yili besh mingga yaqin tomoshabin qatnashadi.

2016-yildan boshlab festival oʻz geografiyasini kengaytirdi va Oʻzbekistonning boshqa shaharlarida ham oʻtkazilyotir. Jumladan, 2017-yilda Toshkentdan tashqari Navoiy va Nukusda, 2018-yilda Shahrisabz va Fargʻonada, 2019-yilda Urganch, Nukus va Jizzaxda tashkil etilgan.

Oʻtgan va joriy yilda Yevropada Oʻzbekistonning tarixiy-madaniy merosiga bagʻishlangan koʻrgazmalar katta muvaffaqiyat bilan tashkil etildi. Oʻtgan yilning noyabr oyi oxirida ikkita koʻrgazma Parijdagi Luvr muzeyida va Arab dunyosi institutida ochildi. Birinchi koʻrgazma koʻproq arxeologik topilmalarga bagʻishlangan boʻlsa, ikkinchisida XIX va XX asrga oid toʻqimachilik, zargarlik buyumlari, gilamlar namoyish etildi. Arab dunyosi institutidagi koʻrgazma joriy yilning iyun oyi oxirigacha oʻz ishini davom ettiradi.

Oʻzbekiston Prezidentining joriy yil may oyida GFRga tashrifi doirasida Berlin shahridagi jahonga mashhur Jeyms Simon galereyasida “Oʻzbekistonning arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha” nomli noyob koʻrgazma ochildi. Koʻrgazmaga bir necha yil davomida tayyorlanganlik koʻrildi. Unda Berlin davlat muzeylari toʻplamlaridan 65 ta va Oʻzbekiston muzeylari toʻplamlaridan 285 ta eksponat namoyishga qoʻyilgan. Ushbu koʻrgazma 2024-yil 14-yanvargacha davom etadi.

Muxtasar aytganda, yuqorida qayd etilganlar Oʻzbekiston ham, Yevropa Ittifoqi ham oʻzaro bogʻliqlikni rivojlantirish manfaati yoʻlida nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy formatdagi hamkorlikni mustahkamlayotgani va oʻzaro bogʻliqlikni kengaytirayotganidan guvohlik beradi. Bu esa kelgusida mamlakatlarimiz hamda mintaqalarimiz xalqlarining farovonligi va taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

“Dunyo” AA

yoʻlga qoʻyildi. Umumiy sigʻimi 1,5 ming tonna boʻlgan muzlatkich, logistika, mehmoxona xizmati ishga tushirilib, 30 dan ortiq doimiy va yuzlab mavsumiy ish oʻrinlari yaratildi.

— Oʻtgan mavsumda qozogʻistonliklar dasturxoniga 600 ming dollardan ortiq gilos eksport qilindi, — deydi ish boshqaruvchi Jahongir Zokirov. — Bu yil eksport miqdorini 1 million dollarga yetkazamiz. Endilikda bogʻbon va tomorga yer egalariidan sarxil mevalar xarid qilish bilan birga, intensiv usulda mahsulot yetishtirish borasida istiqbolli loyihalarini amalga oshirishga eʼtibor qaratdik. Mazkur ishlar uchun umumiy qiymati 1 million dollar boʻlgan investitsiya hisobiga qaqroq qir-adir yerlarni oʻzlashtirib, 100 gektarda gilos bogʻlari tashkil etildi. Bularning bari ishlab chiqarish hajmi va sifatinii oshirishda oʻziga xos imkoniyatlar beradi.

Oʻzbekiston va Qozogʻistonni umumiy bogʻlab turuvchi hamkorlik rishtalari tobora kengayib bormoqda. Keyingi yillarda savdo-iqtisodiy, madaniy, gumanitar sohalarida samarali aloqalar yanada rivojlangani quvonarli.

— Bu yerda ish boshlaganimizga besh yil boʻldi, — deydi investor Baxtigul Bemeldinova. — Keyingi yillarda xorijlik investitorlarni koʻllab-quvvatlash, samarali hamkorlik uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berildi. Shuningdek, bojxona, soliq, bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar turli ovoragarchilik va qogʻozbozliklarga chek qoʻydi. Mahsulot xarid qilish, eksportga yoʻnatilish bilan bogʻliq imkoniyatlarimizni oshirdi. Ayni kunda hamkorlik aloqalari va geografiyasini yanada kengaytirayapmiz. Endilikda nafaqat Qozogʻiston, shu bilan birga, Xitoy va Janubiy Koreya, Yevropa mamlakatlariga ham sarxil mevalarni eksport qilish imkoniyatimiz oshadi.

Fargʻona viloyati hamda Qozogʻiston Respublikasi tadbirkorlari oʻrtasida oʻzaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar koʻlami yangi bosqichda kengayib boryapti. Natijada faqat mevasabzavot emas, balki oziq-ovqat, sanoat, qurilish, metalni qayta ishlash, hunarmandchilik yoʻnalishlarida ham uzoq istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Maʼlumot oʻrnida aytish oʻrinliki, hozirga qadar Qozogʻiston korxonalari kapitali ishtirokida 14 ta qoʻshma, 2 ta xorijiy korxona tashkil qilingan. Oʻtgan yilning oʻzida umumiy qiymati 2 million dollarlilik toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya va kredit oʻzlashtirilib, yuzlab yangi ish oʻrni yaratildi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



BUYUK O'ZBEK YO'LI

Adolatli IJTIMOIY SIYOSAT

mehrli jamiyatimizning
yangi qiyofasiga asos bo'lmoqda



Anvarjon MIRKOMILOV,
"Taraqqiyot strategiyasi"
markazi bo'lim boshlig'i

2022-yil 28-yanvar kuni Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida yetti yo'nalishda 100 ta maqsad belgilab olindi. 100 ta maqsaddan 34 tasi bevosita ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan ham mamlakatimizda ijtimoiy davlat g'oyasi ilgari surilayotganiga yaqqol dalildir.



Boshlanishi 1-betda

Yaqinda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya ham xalqimiz tomonidan ijtimoiy masalalarga oid qator fikr-mulohaza va takliflar bildirilishi natijasida ijtimoiy davlat tamoyiliga oid tegishli normalar bilan boyitildi. U sifatli ta'lim va tibbiy xizmat, ijtimoiy himoyalangan yoki ehtiyojmand qatlarni qo'llab-quvvatlash, qulay mehnat sharoitlarida ishlash, adolatli haq olish, ishsizlikdan himoyalash, ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirildi.

Yangi Bosh qonunimizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari bilan bog'liq normalar 3 barobar ko'paydi. Jumladan, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste'mol xarajatlaridan o'z bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi. Bu degani, 2 million 200 ming ehtiyojmand oila davlatdan kafolatlari moddiy yordam oladi. Bu jami oilalarning 25 foiziga to'g'ri keladi, ularga har yili 11 trillion so'm ajratiladi. O'tgan yili 50 ming oila uchun yangi kvartira olishga sharoit yaratib berildi. Bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilish marrasi olingan. Yaqin 2-3 yilda bu raqamni 200 mingga yetkazish ustida ishlamoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston ijtimoiy davlat ekani qayd etildi. "Ijtimoiy davlat" g'oyasi mazmun-mohiyati Konstitutsiyaga kiritilgan qator boshqa normalarda ham o'z ifodasini topgan.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lim, kafolatlari tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyga ega bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z

muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

2022-yilning 20-dekabr kuni Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ham ushbu masalaga e'tibor qaratgan holda: "Biz yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilaymiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak", degandi.

Ushbu qo'shimchalar natijasida nimalar o'zgaradi?

Birinchidan, ishsizlikdan himoya qilish choralari to'g'risida kasbga tayyorlash tizimi tashkil etilishi natijasida fuqarolarni ish bilan ta'minlash sharoitlari yaratiladi.

Ikkinchidan, "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar" va "Temir daftar"ga kiritilgan ijtimoiy ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha zarur iqtisodiy sharoitlar yaratiladi (ijtimoiy uylar qurish, subsidiyalari ajratish va h.k.).

Uchinchidan, barcha uchun tez va shoshilinch tibbiy yordamni ham o'z ichiga oladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi davlat hisobidan ko'rsatilishi belgilanishi tibbiy xizmat bilan qamrov darajasi va sifatini oshiradi.

To'rtinchidan, alohida ehtiyojlariga va individual imkoniyatlarga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim tashkil etilishi natijasida ularning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi amalga oshirish ta'minlanadi.

Beshinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga ijtimoiy sohalar boshqalar bilan teng imkoniyatlar yaratilishi natijasida ularning hayot sifati va darajasi oshirishga erishiladi.

Oltinchidan, davlat tomonidan iqtidorli, iste'dodli bolalar va yoshlar tizimli

qo'llab-quvvatlanishi ularga ijodiy, intellektual hamda tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatini taqdim etadi.

Ijtimoiy sohadagi muhim chora-tadbirlardan yana biri pensiyaga chiqib ishlayotgan pensionerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan ularga yuz foiz pensiyasini to'lab berish tizimi joriy etilganidir. Oxirgi olti yilda mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 ming-

2022-yil 28-yanvar kuni Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida yetti yo'nalishda 100 ta maqsad belgilab olindi. 100 ta maqsaddan 34 tasi bevosita ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan ham mamlakatimizda ijtimoiy davlat g'oyasi ilgari surilayotganiga yaqqol dalildir.



ta yoki avvalgi yillardagiga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joy qurildi. Masalan, Toshkent shahrida 1991-2016-yillarda 77,2 ming xonadonli 1287 ta ko'p qavatli uy qurilgan bo'lsa, 2017-2022-yillarda 134 ming xonadonli 1481 ta shunday uy bunyod etilgan.

Xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha so'nggi yillarda tizimli ishlar amalga oshirildi. 2020-yildan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila qizlariga oliy ta'limga o'qishga kirish uchun 4 foiz kvota joriy etildi. 2022-2023-o'quv yilidan oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktini to'lash uchun foizsiz ta'lim kreditlari berish yo'lga qo'yildi. Magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma to'lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi. Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum talaba xotin-qizlarning ta'lim shartnomalarini mahalliy budgetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartsiz qoplash tartibiga o'tildi. Yuqorida sanab o'tilgan ishlar ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlarning bir qismidir.

Bunday o'zgarish va yangilanishlar ko'lami qabul qilinayotgan strategik hujjatlar va davlat dasturlarida muntazam davom etmoqda.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadri ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha qator vazifalar belgilab olindi. Xususan, 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olish, 1-4-sinf o'quvchilarini davlat budjeti mablag'lari hisobidan bepul oqat (nonushta yoki tushlik) bilan ta'minlash, 2023-yil 1-yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan o'n ikki barobarigacha oshirish, ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta'limida bo'lish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qo'shib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirish hamda bolalikdan nogironligi bo'lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblash shular jumlasidandir. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish vazifalari qat'iyl belgilab olindi.

Mazkur hujjatda aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish qayd etildi. Unda, xususan,

aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash darajasini 60 foizga yetkazish, majburiy ijtimoiy kafolatlarni bo'yicha qonunchilikni tizimlashtirish va takomillashtirish, belgilangan ijtimoiy himoyaning qat'iy ta'minlanishini nazorat qilish, majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish qat'iyl belgilandi.

Joriy yil 28-fevral kuni Prezidentimizning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yil"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur davlat dasturida ham aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qator vazifalar belgilab olindi.

Bu yilgi davlat budgetida 130 trillion so'm (jami xarajatlarning salkam 50 foizi) ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Joriy yilning o'zida yoshlarni va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga 6,6 trillion so'm ajratilishi rejalashtirilgan, ushbu maqsadlarga ajratilayotgan mablag' o'tgan yildagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p.

Shu bilan birga, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarni (nogironligi bo'lgan shaxslar, og'ir bemorlar, keksalar va boshqalar) migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi davlat xizmatlarini doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyga chiqish orqali ko'rsatilgan xizmat uchun qo'shimcha to'lov undirilmagan holda ko'rsatishni yo'lga qo'yish borasidagi vazifalar ham belgilandi.

Hujjatda, shuningdek, nogironlikni belgilashda fuqarolarga qo'shimcha yengilliklar yaratish maqsadida 2023-yil 1-apreldan boshlab nogironlikni idoralarda elektрон ma'lumotlar almashinuvi asosida nogironlik belgilari aniqlash uchun, anatomik nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklari va asoratlarda fuqarolarning ishtirokisiz belgilash qayd etildi.

Bundan tashqari, "Yangi O'zbekiston" massivlarini rivojlantirish va aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish maqsadida 2023-yilda ana shunday massivlar va 161 ta boshqa joyda, jumladan, xususiy pudrat tashkilotlari tomonidan yangi uy-joylar qurishning yillik hajmi 1,6 barobar oshirilishi, 90 mingga yetkaziladi. Bunda uy-joy hamda ijtimoiy, savdo obyektlarini loyihalashtirish, qurishda avtotransport vositalari turargohlari, shu jumladan, ko'p qavatli va yer osti avtoturargohlari majburiy ravishda barpo etilishi ta'minlanadi. 32 ming fuqaroga bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari, shuningdek, 11 ming fuqaroga boshlang'ich badal va

foiz to'lovlarining bir qismini qoplashga subsidiyalari ajratish uchun davlat budgetidan yetarli mablag' yo'naltirish, aholini bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari orqali uy-joy bilan ta'minlashning yangi tartibi doirasida mulk huquqi bo'yicha uy-joyga ega bo'lmagan fuqarolar uchun Toshkent viloyatida tajriba-sinov tariqasida "Mening birinchi uyim" dasturini amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

2023/2024-o'quv yilidan boshlab barcha viloyatlar va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul oqat bilan ta'minlash yo'lga qo'yilishi ko'p ming sonli ota-onalar va o'qituvchilar uchun quvonarli bo'ldi. Zero, sog'lom va barkamol avlodga o'ldimizga qo'yayotgan katta-katta marralarga erishishda kamrabasta bo'ladi.

Aholi salomatligini asrab-avaylash borasida ham qator vazifalar belgilab olindi. Xususan, 2023-yilda 30 ta oilaviy poliklinika, 110 ta oilaviy shifokorlik punkti va 520 tagacha ixcham mahalla tibbiyot punkti tashkil etildi. Shuningdek, 18-40 yoshli 12,6 million aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazish, 40 yosh va undan katta yoshdagi surunkali kasalligi bo'lmagan 6,3 million kishini yurak qon-tomir kasalliklari va qandii diabet, 3 million aholini onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvlardan o'tkazish bu boradagi amaliy ishlarning davomi bo'ladi. Shu bilan birga, spinal mushak atrofiyasi bilan kasallangan 112 bolani dori-darmon bilan ta'minlash hamda zaif eshituvchi 250 dan ortiq bolada ko'xlear implantatsiya operatsiyalari o'tkazish, bunday operatsiyalar o'tkazilgan 132 bolada nutq protsessori almashtirish choralari ko'rish savobli va mehrli ishlarining bir qismi sifatida belgilandi.

2023-yil yakuniga qadar nogironligi bo'lgan shaxslarni ambulator va stasionar sharoitda bepul tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya choralari bilan qamrab olish ko'lamin 30 mingga yetkazish belgilangan ham inson qadri uchun yuritilayotgan davlat siyosatining namunasidir.

Davlat dasturida og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan 75 ming nafar ishsiz xotin-qizni davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori kasb-hunarlariga o'qitish vazifasi belgilangan edi. Ushbu band ijrosini ta'minlash maqsadida 77 ming 963 xotin-qizning manzilli ro'yxati shakllantirildi. Ro'yxat asosida har bir hududning o'ziga xos drayveridan hamda xotin-qizlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, yanvar-mart oylari davomida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish markazlari yo'llanmasi orqali 21,6 ming xotin-qiz kasb-hunarga o'qitishga jalb qilindi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, O'zbekistondagi islohotlarning asosiy maqsadi insonni rozi qilish, baxtli qilishga qaratilgan. Zero, xalqimiz ertaga yoki kelajakda emas, bugun farovon turmush kechirishi kerak.





DOLZARB MAVZU

AN‘ANAVIYLIKDAN
ZAMONAVIYLIKKA O‘TISH

Katta mablag‘ va resurslarni tejashning eng samarali usuli

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugun butun dunyoda suv taqchilligi tobora ortib boryapti. Bu, ayniqsa, sug‘orish mavsumida yaqqol sezilmoqda. Shu bois, ish uslubini o‘zgartirib, sug‘orishda an‘anaviylikdan zamonaviylikka o‘tish zarur. Chunki mazkur usullar tobora tanqis bo‘lib borayotgan suvni bir necha barobar tejash asnosida hosildorlikni oshirishda ham qo‘l keladi. Bu amalda isbotlangan holat.

Suv xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari-ga ko‘ra, hozirgi kunda respublikamizda 450 ming gektar yoki sug‘oriladigan maydonlarning 15 foizi lazerli texnologiyaga tekislangan. Agar bunday yerlar 2 barobar ko‘paytirilsa, yana 900 million metr kub suv tejaladi, qo‘shimcha 200 ming gektarda suv ta‘minoti yaxshilanadi.

Shuning uchun joriy yilda sohaga mingta lazerli tekislagich olib kelinishi, klasterlar tomonidan fermerlarga ana shu texnik vositalar yordamida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. So‘nggi yillarda 400 ming gektarda tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan bo‘lsa, bu yil yana 80 ming gektar maydonda ishlar boshlangan.

Prezidentimiz bu xususda shu yil 18-aprel kuni suv xo‘jaligida va farmatsevtika sanoatida amalga oshirilayotgan loyihalar hamda kelgusi vazifalar muhokama qilangani bejiz emas.

Gap suv sarfini kamaytirish, uning har tomchisidan samarali foydalanish to‘g‘risida borar ekan, davlatimiz rahbarining 2022-yil 1-martdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga alohida to‘xtalish joiz. Negaki, ushbu qarorga asosan 2022-yilda respublika bo‘yicha 89,8 ming gektarda tomchilatib, 16,2 ming gektarda yomg‘irlatib, 5,7 ming gektarda diskret, 72,9 ming gektar maydonda egiluvchan quvurlar orqali va 36 ming gektar maydonda egatga plyonka to‘shab sug‘orish tizimlari joriy qilindi.

Qariyb 243 ming gektar ekin maydoni lazer uskunasi yordamida tekislandi. Natijada suv sarfi tejaladigan maydonlar 1 million gektardan oshib, qishloq xo‘jaligi umumiy ekin maydonining 25 foizi qamrab olindi.

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga subsidiyalari berish tizimi takomillashtirilib, “Agro-subsidiya” yagona

axborot tizimi ishga tushirildi. Hozir klaster va fermer xo‘jaliklariga subsidiya ushbu tizim orqali onlayn tarzda ajratib berilmoqda.

60 foizgacha suv iqtisod
qilinadi

Mutaxassislar bunday texnologiyalarni o‘rtta — tomchilatib, yomg‘irlatib, diskretli (pulsar) hamda lazerli moslama yordamida tekislangan yerlarni sug‘orishga ajratadi. Tabiiyki, bularning bari bir maqsad — suvni tejashga qaratilgan. Aytaylik, egatlab sug‘orishda infiltratsiya va bug‘lanish sababli suv ko‘p isrof bo‘ladi. Ekinlar tomchilatib sug‘orilganda esa suv bilan birga zarur o‘g‘itlar ham ildizga uzatib beriladi. Natijada paxta va bug‘doy hosildorligi 30, mevali daraxtlar va sabzavot ekinlari hosildorligi 50 foizgacha oshadi. Gektardan o‘rtacha 30 foizgacha mineral o‘g‘itlar, 35 foizgacha yonilgi va moylash materiallari hamda mexanizatsiya resurslari, eng asosiysi, 60 foizgacha suv iqtisod qilinadi.

Yomg‘irlatib sug‘orish tizimining turiga qarab, suvni turli manbalardan — mobil, harakatlanadigan uskuna bo‘lsa, dalaga maxsus keltiriladigan kanal, dalaning o‘rtasiga o‘tkazilgan quvur, yer osti qudug‘idan olish mumkin.

Yomg‘irlatib sug‘orish tuprog‘i g‘ovak va suv o‘tkazuvchanligi kuchli maydonlarda ildizi unchalik chuqur ketmaydigan (popuk ildizi) ekinlar, ayniqsa, sabzavotlar va dalaga yoyib ekiladigan ekinlarni parvarishlashda yaxshi samara beradi.

Eroziyaga moyil yengil tuproqli, yer yuzasi notekis bo‘lgan adir maydonlarida ham ekinlarni yomg‘irlatib sug‘orish tizimlaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan foydali. Tez-tez kuchli shamol bo‘lib turadigan hamda tuprog‘i suv o‘tkazuvchanligi past bo‘lgan hududlarda ushbu usulni qo‘llash tavsiya qilinmaydi.

Yomg‘irlatib sug‘orishning “Keng qamrovli” (CENTER PIVOT) tizimi harakatlanadigan (g‘ildirakli) minoralarga birlashtirilgan quvurlar yordamida ishlaydi. Tizim narxi 1 gektarga 20-22 million so‘mni tashkil qiladi. Odatda, yerning reliefi va joylashishiga qarab 50-100 gektargacha

maydonlarda foydalaniladi. 40 foizgacha suv, 90 foizgacha qo‘l mehnati, 30 foizgacha mineral o‘g‘itlarni tejashi uning asosiy afzalligi hisoblanadi. Foydalanish muddati esa 15-20 yil. Mazkur texnologiya, asosan, AQSH, Turkiya, Ispaniya va Xitoydan import qilinadi. Yurtimizda hozircha bitta korxonada shunday texnologiya ishlab chiqariladi.

“Mobil” tizimi orqali esa ekinlar qishloq xo‘jaligi mashinalari yordamida shlangli g‘altak va maxsus purkagich (pushka) bilan sug‘oriladi. Tizimda minimal boshlang‘ich sarmoyalar bilan ish kuchi sezilarli darajada kamaytiriladi. Tizim narxi 1 gektarga 15-20 million so‘m atrofida. Bir dona mashina narxi 250-300 million so‘m. Odatda, bitta tizim 20 gektargacha maydon uchun rejalashtiriladi. Suv, ishchi kuchi, mineral o‘g‘itlarni tejashdan tashqari, elektr ta‘minoti bo‘lmagan maydonlarda dizel yoqilg‘isidan foydalanish imkoni borligi asosiy ustunligidir. Ushbu texnologiya ham Turkiya va Xitoydan keltiriladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan tizimning ayrim butlovchi qismlari ishlab chiqariladi.

Sug‘orishning yana biri usuli “Sprinkler” — stasionar kalta purkovchi uskuna yordamida suv yetkazib beradigan yomg‘irlatib sug‘orish tizimi bo‘lib, quvurdan chiqayotgan suv kuchi purkagich orqali aylanma harakatga keltiriladi. Ushbu tizim inson tomonidan qisman nazorat qilishni talab etadi, narxi gektarga 25-30 million so‘m. Tejamkorligi yuqoridagi tizimlardak ancha ijobiy.

Yerni lazerli tekislash orqali suvni tejash ham o‘ziga xos usul hisoblanadi. Masalan, an‘anaviy yer tekislash usullarini qo‘llashda yoki yer umuman tekislanmaganda suvning dala bo‘ylab yoyilishi bir tekis kechmaydi. Yerning botiq joylariga suv ko‘p to‘planib, ortiqcha namlik hosil bo‘ladi. Dalaning nisbatan baland joylariga esa, aksincha, suv



yetib bormaydi, ekinga namlik yetmaydi. Natijada o‘simlik rivojlanishi turlicha kechadi. Hosildorlik kutilgan darajada bo‘lmaydi. Yerni lazerli tekislash bu kabi kamchiliklarni bartaraf etadi. Bu fermer uchun qator afzalliklarga ega. Avvalo, suvning yer yuzasi bo‘ylab bir tekis yoyilishi tufayli yer nishabligi 3 santimetrga teng bo‘ladi. Suv tejamkorligi 25 foizga yetadi.

Bular — bugungi kunda butun dunyo, shu jumladan, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan va tobora ommalashib borayotgan suv tejovchi texnologiyalar. Muhimi, dehqon-u fermerlarimiz suvni tejash davr talabi ekanini yaxshi anglab, o‘z xo‘jaliklarida bu usulni kengroq va ko‘proq qo‘llashga intilmoqda. Bu borada davlatimiz ularni ko‘llab-quvvatlab turibdi. Lekin mazkur texnologiyalarni o‘zimizda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish kerak. Chunki bu davr talabi va ehtiyoji. Shunda jarayon tezlashib, ommalashib ketishiga yo‘l ochiladi.

O‘zbek dehqonlari
mahsuloti jahon bozorida
o‘z o‘rniga ega

Ochig‘i, yurtimizda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab yuqori. Buning sababi oddiy: O‘zbekiston — quyoshli mamlakat. O‘ftob nuridan to‘yingan, ya‘ni tabiiy yetilgan har qanday mahsulotning qadri baland bo‘ladi. Misol uchun, Parkent tumanidagi “AgroStar Expo” MCHJ dalalaridan terib olinayotgan gilos o‘tgan yillari Rossiya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlarga eksport qilingandi. Jamiyat bosh agronomi Jo‘rabek Po‘latovning ta‘kidlashicha, bu yildan boshlab ular safiga Indoneziya ham qo‘shilgan. E‘tiborlisi, jamiyatga qarashli 110 gektarlik bog‘ to‘liq tomchilatib sug‘orish texnologiyasi bilan jihozlangan. Buning uchun har gektar yerga o‘rtacha 45 million so‘m sarflangan.

Bog‘ hali yosh — 2019-yilda tashkil etilgan. Gilos, olma, nok ko‘chatlarining ayrimlari keyingi yildayoq hosilga kirgan bo‘lsa, yildan-yilga hosildorlik ortib borishi hisobiga joriy yilgi hosil cho‘g‘i ancha baland. Xarajat ortig‘i bilan qoplanadi. Shu bois, jamoa yaqin vaqtda yangi loyihalarni ishga tushirish niyatida.

Tumandagi bu kabi tejamkor texnologiya qo‘llayotgan xo‘jaliklar sirasiga “Agro Eliit” MCHJni ham kiritish mumkin. Aytish joizki, ushbu jamoa bu borada ancha tajribaga ega. Chunki parvarishlanayotgan daraxtlar yetti yillik. Jamoa tejamkor texnologiya samarasini allaqachon o‘z faoliyati misolida his qilgan.

— Hududimiz dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun qulayligi odamlari-

mizning baxti, — deydi Parkent tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi Faxriddin Ruhiddinov. — Chunki bizda aynan shu yumush orqasidan daromadi va turmushi yaxshilanib borayotgan oilalar ko‘p. Tarmoqqa suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llashga jiddiy e‘tibor qaratilayotgani esa dehqonchilik madaniyatini yanada oshiryapti. Ya‘ni odamlar ham, tadbirkor ham, fermer ham suvni kam sarflab, yuqori hosil olish mumkinligini tushunib yetyapti.

Parkent tumani bo‘yicha 2023-yil yozgi mavsum uchun qishloq xo‘jalik yerlarini sug‘orishga 80,1 million metr kub limit ajratilgan. Tuman manzilli dasturiga asosan, bu yil 1300 gektar, shundan 800 gektar uzumzor, 400 gektar bog‘ va 100 gektar boshqa ekin maydonlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish rejalashtirilgan. Hozirgacha 549 gektar bog‘ — tok, sabzavot ekinlari maydonlarida shunday tizimni qo‘llash yo‘lga qo‘yildi.

Irrigatsiya tizimida suv yo‘qotilishini kamaytirish maqsadida 4,81 kilometrda tozalash ishlari amalga oshirildi. Suv resurslari xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan iste‘molchilar bilan maxsus suv xizmati bo‘limi shartnomalar rasmiylashtirib bormoqda.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida O‘zbekistondan 359,2 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilingan. Ya‘ni 256,1 million dollarlik mahsulot chetga sotilgan. Bu esa 2022-yilning mos davriga nisbatan 6,5 foizga ko‘p.

Asosiy savdo yo‘nalishlari — Rossiya, Pokiston, Xitoy va Qozog‘iston bo‘lsa, importchilar safida Afg‘oniston, Qirg‘iziston, Belarus, Turkiya, Iroq hamda Eron bor.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tahlillariga qaraganda, meva-sabzavotlar eksportida qiymat jihatidan eng katta ulushni mosh — 13,7 foiz, mayiz — 10,4, quritilgan qora olxo‘ri — 7, pomidor — 6,1, karam — 5,1, yangi uzilgan uzum — 4,3, piyoz — 4,3 hamda anor — 3,3 foizni tashkil etadi. Bu yaxshi jihat. Binobarin, eksport qo‘shimcha daromad va imkoniyat yaratadi.

Prezidentimiz o‘tgan yili qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan bayram tabrigida dunyoda oziq-ovqat taqchilligi tobora ortib, mintaqamizda cho‘llashish jarayoni kuchayib borayotgani qishloq xo‘jaligi xodimlari oldiga ham dolzarb vazifalar qo‘yayotganini, shuning uchun ushbu yo‘nalishda boshlangan islohotlar izchil davom ettirilishini ta‘kidlagan edi. Qishloq xo‘jaligida suv ta‘minotini yaxshilash, suv xo‘jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tarmoqqa tejamkor usullarni qo‘llash borasidagi bugungi loyihalar esa kelgusida o‘z natijasini ko‘rsatishi muqarrar.



QISHLOQ XO‘JALIGI

FOYDALANISHGA KIRITILGAN YERLAR
aholi foydasiga xizmat qilmoqda

Feruza JO‘RAYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mo‘l hosilga kirgan poliz va bog‘larni ko‘rganda, mana shunday go‘zal manzara o‘rnida bir vaqtlar qup-quruq dasht bo‘lgani hech kimning xayoliga kelmaydi. Aholi tomorqasidan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi sohasini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilayotgan alohida e‘tibor tufayli bugun agrar tarmoqda salmoqli o‘zgarishlar bo‘yo ko‘rsatmoqda.



Prezidentimiz raisligida bundan ikki yil oldin — 2021-yil 8-iyun kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida qishloq xo‘jaligi

va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta‘minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini

ko‘paytirish masalalari ko‘rib chiqilgan, mazkur masalalar yechimida o‘zlashtirilmagan yerlar asosiy omil ekanini ta‘kidlanib, qishloq xo‘jaligi yerlarini 10 yil muddatga dehqonchilik uchun ijaraga berish tartibini joriy qilish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan edi.

O‘z nomidan ham ma‘lumki, o‘zlashtirilmagan yerlar hech qanday iqtisodiy samara bermaydi. Agar u o‘zlashtirilsa, albatta, katta samara beradi. Birinchidan, ishsiz yurtdoshlarimiz bandligi ta‘minlanadi, ikkinchidan, o‘zlashtirilgan yerda yetishtirilgan mahsulot ham minglab oilalarga daromad keltiradi, ham bozorlarimiz to‘kinligiga xizmat qiladi, iqtisodiyotimizga yaxshigina naf keltiradi. Buni yerlarni ijaraga berish tartibi yo‘lga qo‘yilganiga bor-yo‘g‘i ikki yil bo‘lganiga qaramay, katta natijalarga erishayotgan mirishkorlar faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin.

Navoiy viloyatida hududning tabiiy iqlim sharoiti, tuproq tarkibini e‘tiborga olgan holda boshlangan bu boradagi ishlar bugun o‘zining ijobiy samarasi bilan ko‘rgan ko‘zni quvontirmoqda.

Masalan, Xatirchi tumanidagi bo‘sh yerlar o‘zlashtirilib, mevali bog‘lar barpo etildi. Chunonchi, “Xatirchi kelajagi sari” fermer xo‘jaligiga qarashli dala maydonida yerdan unumli foydalanish maqsadida qator oralariga poliz va dukkakli

ekinlar ekilib, bugungi kunda mo‘l hosil bermoqda.

— Bog‘dorchilik, umuman, dehqonchilik yaxshi kasb, mehnatingizga yarasha foyda ko‘raverasiz, — deydi fermer xo‘jaligi rahbari Maqsd Ismatov. — Yerni tashabbuskor aholiga berishdek samarali tizimning yo‘lga qo‘yilganidan bugun ko‘pchilik manfaatdor. Zero, ushbu tizim minglab oilalarni ish va daromad bilan ta‘minlamoqda. Ikki yil avval kattagina yerni ijaraga olib, tok va olma ko‘chatlarini ekan edi. Bu yil hosildan umidimiz katta. Vaqt va yerdan unumli foydalanish uchun qator oralariga poliz va dukkakli ekinlar ekanmiz. 170 gektarga tarvuz ekilgan. Hosili kutganimizdan ham yaxshi. 20 ming tonna mahsulot olishni reja qilganman.

Narx-navo barqarorligi, arzonchilikni ta‘minlashda birinchi muhim jihat bozorda taklifni ko‘paytirish hisoblanadi. Taklifni ko‘paytirish uchun mahsulot yetishtirish hajmini oshirish talab etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, yerdan unumli foydalanish zaruratini paydo qiladi.

Fermer ham shu maqsadda yerni o‘zlashtirish jarayonida 18 ta tik quduq qazib, qaqragan yerlarni obihayot chiqardi. Hovuzlar qazilib, kafolatli suv ta‘minoti tizimi yaratildi. Hovuzlarda to‘plangan suv zarur mineral o‘g‘itlar bilan to‘yintirilib, so‘ng tomchilatib sug‘orish tizimi orqali ekinlarga yo‘natiriladi.

“Xatirchi kelajagi sari” fermer xo‘jaligida 200 ta mavsumiy va 20 ta doimiy ish o‘rni yaratilgan. Shuningdek, namanganlik o‘ttizga yaqin oila vakillari bilan tajriba almashilmoqda.

— Ish boshlashimizdan oldin mazkur fermer xo‘jaligiga qarashli yerda ekin unishga, ochig‘i, bir oz shubhalangan edi, — deydi namanganlik Dehqonboy Dasturshohov. — Lekin mehnatdan qochmasang, hosil ham, daromad ham yaxshi bo‘lar ekan. Tuproqni mo‘l hosil beradigan sog‘lom holatga keltirish katta mehnat talab qiladi. Shunga yarasha rohati ham bor, albatta. Shu yerda ishlab, oilamni boqayman, kam-ko‘stimni to‘ldiryapman.

Inson astoydil mehnat qilsa, intilsa, biy-day cho‘lni ham yam-yashil boqqa aylantira olarkan. Zero, bir vaqtlar tashloq, suv chiqishi, ekin unishi qiyin, deya qaralgan yerlar bugun baraka manbaiga aylangan.

Termiz tumanidagi Soliobod mahallasi-da istiqomat qiluvchi Yoqub Jo‘rayevning asl kasbi — uchuvchi. Shu bilan birga, dehqonchilikda ham katta tajriba orttirgan.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 23-noyabrda “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, aholiga yer maydonlari ijaraga berildi.

Yoqub Jo‘rayev ham ushbu imkoniyatdan foydalanib, auktsion orqali bir gektar yer maydonini o‘zlashtirdi. Bugun ana shu yerda parvarishlangan qovun-tarvuzning

ertapishar navlari pishib yetilgan. Poliz mahsulotlari yetishtirishning ham o‘ziga yarasha hadisi bor. Bir palakdagi kamida olti-yettitagacha qovun-tarvuz hosilidan chamlash mumkin, xirmonning cho‘g‘i baland.

— Auktsion orqali yer olgan edik, — deydi Yoqub aka. — Bugun oilaviy tadbirkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘yganimiz. To‘g‘risi, boshida ikkilandik, hosil kutilgandek bo‘lmasa, xarajatlarimiz besamar ketishidan qo‘rqdik. Ammo davlat tomonidan imkoniyat yaratilindi, undan samarali foydalanish kerak. Shunga yarasha mehnat qildik. Bugun hosilimiz kutilganidan ham a‘lo. Mart oyida yerga qadalgan urug‘ hosiliga kirib, bozorga yetkazib berilyapti. Oldinda to‘ylar ko‘p, farzandlarim uchun alohida uy-joy qilishim kerak. Barcha xarajatlarni mana shu yerdan olinadigan daromad hisobiga qoplaymiz. Ba‘zan yerni o‘zlashtirib, undan foydalana olmagalar haqida eshitib qolaman. Demak, ular yerga bor mehniri bermagan.

Kezi kelganida ta‘kidlash joiz, Soliobod mahallasining asosiy o‘shish nuqtasi, ya‘ni drayveri — dehqonchilik. Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga ko‘ra, 2022-yilda 151 ta lotga joylashtirilgan 30,2 gektar yer maydoni auktsion orqali fuqarolarga ajratib berildi. Ana shu yer maydonlarida Yoqub aka kabi mirishkorlar mo‘l hosil yetishtirib, shunga yarasha yaxshigina daromad olmoqda.

Inson yashashi, rizq topishi, turmushini farovon qilishi uchun zarur bo‘lgan yerning har qarichi oltinga teng. Undan samarali foydalanish qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish barobarida, farovonligimizning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Dilshod RUSTAMOV,
Andijon davlat chet tillari instituti rektori,
filologiya fanlari doktori



Keyingi yillarda oliy ta‘lim tizimiga tatbiq etilayotgan islohotlar samarasini bugun yurtimizda ko‘plab xorijiy hamda xususiy oliy ta‘lim muassasalari faoliyat yuritayotgani va sohada sof raqobat muhiti shakllanayotgani misolida ham ko‘rib turibmiz. Quvonarlisi, chet tillarini o‘qitish va shu orqali malakali tarjimonlar va turizm sohasi xodimlarini tayyorlaydigan o‘quv yurtlari soni ham ancha ko‘paydi.

Barcha mutaxassislik fanlarini tegishli xorijiy tillarda o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, institutning ingliz, nemis, fransuz tillari bo‘yicha mutaxassislik kafedralari professor-o‘qituvchilarining S1 darajadagi milliy va xalqaro til bilish sertifikatiga egalik ko‘rsatkichi 100 foizni tashkil etdi.

Xorijiy hamkorlar — oliygoh yuzi

Bugun barcha sohalar qatori oliy ta‘limda ham xalqaro hamkorliksiz taraqqiy etib bo‘lmaslisi ayon bo‘lib qoldi. Shu ma’noda, oliygohimiz Singapurning Amiti xalqaro universiteti, Buyuk Britaniyaning Kembrij hamda Portsmut universitetlari, AQSHning Ogayo universiteti hamda Norvich instituti, Koreyaning Cheju Hala hamda King Sejong universitetlari, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistik universiteti, A.S.Pushkin nomidagi Rus tili davlat instituti, O‘sh davlat universiteti, Turkiyaning Kanfas, Gazi va Hoji Bayram universitetlari hamda Hindistonning Milliy turizm va mehmondo‘stlik menejmenti institutlari bilan hamkorlik yo‘lidan boryapti. Shuningdek, Buyuk Britaniya hamda AQSH kon-

sulliklari, ETC xalqaro tashkiloti, AQSH va Germaniya elchixonalari bilan ham hamkorlik aloqalarimizni tobora mustahkamlayapmiz.

Bu boradagi harakatlarimiz natijasi o‘laroq, 5 ta xorijiy oliy va ilmiy ta‘lim muassasalarining salohiyati yuksak,

Bugun professor-o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bilimini yuksaltirish, kasbiy mahoratini oshirib borish hamda axborot-resurs tizimidan erkin foydalanish imkoniyatini kengaytirish ham zaruratga aylandi. Shu maqsadda joriy yilning

Iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlashning amaldagi ko‘rinishi sifatida ular muallifligidagi 4 ta uslubiy qo‘llanma nashr etildi. 43 ta xalqaro va 33 ta respublika ilmiy jurnallari va konferensiya to‘plamlarida talaba yoshlarimizning mualliflik maqolalari e‘lon qilindi.

zukkolar” jamoasi tashkil qilindi. Jamoalar viloyat va respublika miqyosida o‘tkazilgan tanlovlarda munosib ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Bir yil davomida erishgan yutuqlarimiz o‘zimizniki ekanini barobarida, istiqboldagi rejalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini ham ishlab chiqdik. Zero, mamlakatimizda oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida barcha oliy ta‘lim muassasalarini xalqaro e‘tirof etilgan reyting tashkilotlari ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha vazifalar belgilab qo‘yilgan. Ularni mas’uliyat bilan bajarish uchun imkonimiz ham, salohiyatimiz ham yetarli. Muassasamizning hududiy yoki fan doirasidagi reytinglarda o‘z o‘rnini mustahkamlab borayotgan fikrimiz isbotidir.

2023-2027-yillarda institutni kompleks rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan “yo‘l xaritasi”ga ko‘ra, birinchi navbatda, institut o‘quv dasturlarini xalqaro tan olingan tashkilotlarning tashqi akkreditatsiyasidan o‘tkazish vazifasi belgilangan. Shuningdek, pedagog xodimlarimiz ilmiy-uslubiy va o‘quv adabiyotlar nashrlarining samaradorligi oshirilishi ortidan xorijiy fond, davlat grantlari va tijoratlashtirish mablag‘larini o‘zlashtirish ishlari ham olib borilyapti. Milliy va xalqaro sertifikatga ega talabalar sonining oshib borishi natijasida prognozlarimiz 2027-yil natijalariga ko‘ra, 950-970 nafarni tashkil etishini ko‘rsatmoqda. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati izchil ravishda oshirilib, 2024-yilda 30 foizga, 2027-yilda esa 45 foizga ko‘tariladi. Himoya qilindigan fan doktori dissertatsiyalari (DSc) soni 2023-yilda — 3 ta, 2024-yilda — 5 ta, 2025-yilda — 7 ta, 2026-yilda — 9 ta va 2027-yilda — 11 taga yetkaziladi. Falsafa doktori dissertatsiyalari (PhD) soni esa 2023-yilda — 10 ta, 2024-yilda — 15, 2025-yilda — 20, 2026-yilda — 25 va 2027-yilda 30 taga oshishi ko‘zda tutilyapti.

Aytish joizki, institutda ilmiy tadqiqot faoliyati va natijalarini amaliyotga tatbiq etish asosida mablag‘larni o‘zlashtirish yo‘nalishida ham aniq vazifalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilab olingan. Xususan, xorijiy fond mablag‘lari summasi joriy yildagi 100 million so‘mdan 2027-yilda 1,2 milliard so‘mga yetkaziladi. Davlat grantlari mablag‘lari summasi ham 2023-yilda 100 million so‘m bo‘lgani holda 2027-yilda 700 millionga, ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirishdan tushadigan mablag‘lar esa 300 million so‘mga yetkaziladi.

Institut professor-o‘qituvchilarining ilmiy-uslubiy nashrlari samaradorligi va natijadorligini oshirish bo‘yicha ham shaxsiy ilmiy reyting prognozlari ishlab chiqilgan. Bu belgilangan natija — monografiya nashri soni 2027-yilda — 11 taga, Scopus, Web of Science bazalariga kiritilgan nufuzli jurnallardagi maqolalar soni 100 taga, respublika ilmiy jurnallarida 50 taga, iqtiboslik darajasini esa (har bir maqola uchun) 2,5 taga yetkazishga zamin yaratadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan bizga berilgan ishonch va keng imkoniyatlardan samarali foydalanib, oldimizda turgan ulkan marralarni zabt etishda institut jamoasi bir oila bo‘lib harakat qilmoqda. Ko‘p yillik tajribaga ega pedagoglar yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, ko‘plab xayrli ishlarga boshqosh bo‘lyapti. Jamoani kreativ fikrlaydigan, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor yosh kadrlar bilan boyitib borar ekanmiz, albatta, ko‘zlagan maqsad va marralarimizga erishamiz.

YOSHLAR — KELAJAGIMIZ



katta tajribaga ega bo‘lgan besh nafar olim va mutaxassislarini institutimiz ilm-fan va ta‘lim jarayoniga jalb etishga erishdik. Ayni paytda xorijlik 3 nafar professor-o‘qituvchi va mutaxassis talabalarimizga ta‘limning masofaviy shaklida 3 ta mutaxassislik fanidan mahorat darslari, videoseminar va vebinar o‘quv mashg‘ulotlari olib bormoqda. Kelajakda xorijiy mutaxassisliklar sonini 9 taga yetkazish va qo‘shimcha 6 ta OTM bilan mazkur yo‘nalishdagi ishlarni davom ettirishni reja qilganmiz.

Ilmiy salohiyat yuksak bo‘lsa...

2022-2023-o‘quv yilida institutning bakalavriat hamda magistratura yo‘nalishlari uchun 7 ta darslik va 21 ta o‘quv qo‘llanma yaratish bo‘yicha mualliflar guruhi shakllantirildi. O‘quv adabiyotlarini yaratish reja-grafigi ishlab chiqilib, joriy yilning 1-choragida institut kengashida 36 ta adabiyot, 5 ta darslik, 28 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta uslubiy qo‘llanma va 3 ta lug‘at muhokamadan o‘tkazilib, nashrga tavsiya qilindi.

fevral-mart oylarida AKT bo‘yicha qisqa muddatli intensiv kurslar tashkil etdik. Ularda o‘quv jarayonini loyihalash, raqamlashtirish hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha mahorat darslari olib borildi.

Ta‘lim muassasasining nufuzi, tizimda tutajak o‘rni, albatta, pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatiga bog‘liq. 189 nafar professor-o‘qituvchilarimizning 5 nafari fan doktori, 48 nafari fan nomzodi va falsafa doktori. Ilmiy darajaga ega pedagoglar sonini oshirish, ilm-fan va ta‘lim o‘rtasida integratsiyani mustahkamlash borasida tadqiqot ishlari olib borish va oliy ta‘limdan keyingi ta‘limni samarali tashkil etish maqsadida ochilgan 4 ta ixtisoslik bo‘yicha doktorantura, tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchilik institutlarimizda shu yildan boshlab jami 14 nafar doktorant va stajyor-tadqiqotchi tahsil olaypti. Tadqiqotchilar va doktorantlarga dissertatsiya himoyalarni o‘tkazishda qulayliklar yaratish maqsadida 3 ta ixtisoslik bo‘yicha ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashgan ilmiy kengashni ochishga erishdik. Shu bilan birga, institutda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar va talabalar uchun “Fan, ta‘lim, jamiyat” ilmiy jurnali davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, faoliyat boshladi. Bu ham, albatta, o‘qituvchilarimiz, talabalarimizni ilmiy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, professor-o‘qituvchilarning ilm-fan va ilmiy tadqiqot faoliyatini tizimli boshqarish, ularga shart-sharoit yaratish hamda “ustoz-shogird” tizimi asosida iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish maqsadida 2022-2023-o‘quv yili uchun ilmiy, o‘quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy ishlanmalar va innovatsion loyihalarga oid jami 636 ta reyting prognozlari ishlab chiqilgan. Uning asosida professor-o‘qituvchilar tomonidan 10 ta darslik, 41 ta o‘quv qo‘llanma, 3 ta lug‘at, 32 ta monografiya, 20 ta mualliflik guvohnomasi, 195 ta ilmiy maqola, 225 ta konferensiya tezislari nashr qilindi.

Qisqa fursatda iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi bo‘yicha 21 nafar yoshlar nomdor stipendiyalarga loyiq ko‘rildi. Jumladan, 3 nafari “Navoiy” stipendiati, 2 nafari “Kelajak bunyodkori” medali sovrindori, 1 nafari “Yil talabasi” stipendiati, 1 nafari “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika ko‘rik-tanlovi g‘olibi va 2 nafari tanlovning hududiy bosqich g‘oliblari, 3 nafari rektor stipendiati bo‘lsa, 2 nafari Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi “Yoshlar akademiyasi” a‘zoligiga qabul qilingan.

Barcha imkoniyatlar ertamiz egalariga

Oliyoghdah tahsil olayotgan har bir talabaning qiziqishi va qobiliyatiga individual yondashish faoliyatimizning eng muhim mezoniga aylanyapti. Zero, bugungi shiddatli taraqqiyotning o‘zi ham shunga majbur etadi. Shaxsdagi qobiliyatni to‘g‘ri yo‘naltirish va undan unumli foydalanish bilan yaxshi natijalarga erishiladi, albatta. Institutning Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi tomonidan talabalarining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularni qo‘shimcha foydali faoliyat turlariga, kasb-hunarga yo‘naltirish, sog‘lomlashtirish, bilim olishga rag‘bat uyg‘otish maqsadida 400 dan ortiq tadbir, aksiya va tanlovlar tashkil etildi. Xususan, sport tadbirlari, intellektual bellashuvlar, insholar tanlovlari, ko‘ngilochar, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ko‘tarinki ruhda tashkil etildi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni talabalar o‘rtasida keng ommalashtirish maqsadida “Besh muhim tashabbus” markazi tashkil etildi. Ushbu dargoh zamonaviy jihozlanib, besh muhim tashabbus g‘oyalarni targ‘ib etuvchi surat va bannerlar bilan bezatildi. Markaz uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy-texnik jihozlarni olib kelindi. Markaz ixtiyoriga sport zali, kutubxona, book-kafe, ochiq sport maydoni va konferensiya zali topshirildi. Talabalar bu yerdagi imkoniyatlardan unumli foydalanishi uchun alohida shtat joriy etilib, markaz rahbari tayinlandi. Iqtidorli yoshlardan “Ibrat” teatr studiyasi, “Quvnoqlar va

2023-YIL — INSONGA E‘TIBOR VA SIFATLI TA‘LIM YILI

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ilgari bolalarning biri ovqatlanasa, ikkinchisining ovqatlanishga puli bo‘lmamdi. Shuningdek, ko‘plab bolalar dars paytida oshxonaga borishni o‘ylab o‘tirardi. Hozir barchasining bir vaqtda bepul ovqatlanishga imkoniyat yaratildi. Bu bolalarning ruhiyatiga ijobiy ta‘sir qilyapti. Eng muhimi, sinfda hamma teng, bir xil sharoitga ega, bir xil ovqat yeydi. Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi maktablarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta‘minlash tizimini yo‘lga qo‘yish belgilangan edi.

O‘tgan vaqtda tizimni ishga tushirish yo‘lida dastlabki qadamlar qo‘yildi. Amudaryo tumanida bu borada muayyan ishlar qilinmoqda. Mavjud 85 ta umumiy o‘rta ta‘lim maktabining barchasida 1-4-sinf o‘quvchilarini bepul ovqatlantirish tashkil etilgan.

— Tumanimizdagi 85 ta maktabda tahsil olayotgan 14 ming 769 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga 4 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan yengil nonushta yetkazilib berilmoqda, — deydi Amudaryo tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i Said Sadiqova. — “Shohnur Azatovich” MCHJ 13 ta, “Navro‘z” MCHJ 29 ta, “Mangit milik” MCHJ 14 ta hamda “Tabassum” MCHJ 29 ta umumta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘z vaqtida va sifatli yengil nonushta bilan ta‘minlayapti.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini keytering usulida sog‘lom ovqatlantirish maqsadida tumandagi barcha maktablar oshxonasida hamda sinf xonalari-da sanitariya-gigiyena talablariga mos shart-sharoit yaratilgan. Bu borada

maktablarda maxsus komissiyalar tashkil qilingan.

— Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini keytering usulida bepul ovqatlantirishning standart talablariga mosligini kundalik ko‘riddan o‘tkazib borish maqsadida ishchi guruh ham tuzilgan, — deydi Said Sadiqova. — Bu guruhlar tarkibida tuman hokimining birinchi o‘rinboshi, tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi, tibbiyot birlashmasi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi, Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi tuman bo‘limi boshliqlari bor. Ular o‘quvchilarga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya-gigiyena talablari hamda taomnomaga mosligini va miqdorini muntazam ravishda ko‘riddan o‘tkazib boradi.

— Bolalar — kelajagimiz. Ularning jismonan va ma‘nan sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishi ko‘p jihatdan sog‘lom va sifatli ovqatlanishga ham bog‘liq, — deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri Ahmed Narimbetov. — Shunday ekan, bu borada nazorat o‘rnatish nafaqat mas‘ul idoralarning, balki keng jamoatchilikning ham vazifasi bo‘lmog‘i kerak. Qoraqalpog‘istondagi 716 ta umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 139 577 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi keytering usulida bepul tayyor oziq-ovqat bilan ta‘minlangan. Respublika Vazirlar Kengashidagi xarid komissiyasiga geografik joylashuvi va ular o‘rtasidagi masofani inobatga olgan holda, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini alohida lo‘tlarga bo‘lib, Eten-der.yuzex.uz elektron tizimining maxsus

platformasiga joylashtirish va tanlovda savdolariga qo‘yish vazifasi yuklangan. Keytering tashkilotini tanlab olish “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan o‘tkaziladigan tanlov yakunlari bo‘yicha amalga oshirildi.

— Keytering Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan namunaviy mavsumiy taomnomalar, taom tayyorlash bo‘yicha texnologik kartalar asosida tashkil qilingan, — deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining umumta‘lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko‘rsatishni muvofiqlashtirish sho‘basi bosh xodimi Sulaymon Habibov. — Keytering tashkilotlari qadoqlangan tayyor taomlarni maxsus avtotransport vositalarida yetkazib beradi, sanitariya qoidalarini, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq o‘quvchilarga tarqatishni tashkil etadi va chiqindilarni o‘z vaqtida utilitatsiya qilib boradi. Ko‘rsatilgan xizmatlar hisob-kitobi shartnoma oylik summasining 15 foizi oldindan, 85

foizi esa haqiqatan ko‘rsatilgan xizmatlar summasidan kelib chiqib, taqdim qilingan hisob-fakturalarga asosan amalga oshirilmoqda.

— Tumanimizdagi 23 ta maktabning boshlang‘ich sinflarida ta‘lim olayotgan 2875 nafar o‘quvchi bepul ovqatlanmoqda, — deydi Taxtako‘pir tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i Vazifasini bajaruvchi Muyassar Allambergenova. — Bo‘limimiz sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish yuzasidan doimiy monitoring olib boryapti. O‘quvchilar va ularning otalonalari o‘rtasida muntazam so‘rovnomalarni o‘tkazyapmiz.

— Oziq-ovqat mahsulotlarini sinf rahbarlari nazoratida sanitariya qoidalariga amal qilgan holda maktab oshxonalarida yoki sinf xonalarida uchinchi soatdan so‘ng, katta tanaffus paytida o‘quvchilarga tarqatib berish nazarda tutilgan, — deydi Mo‘ynoq tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i Maqsetboy Ametov. — O‘tkazilgan nazorat tadbirlari davomida ishchi guruh a‘zolari 1-4-sinf o‘quvchilariga berilayotgan yengil nonushtaning tayyorlanishi va tarqatilishini ko‘zdan kechirib, tegishli xulosalar ham berib boryapti. Ularning fikri asosida o‘zgarishlar qilyanipti.



BUGUNNING GAPI

Qaynoq yozning ilk kuni jondan aziz bolajonlarimizning shodon kulgusi, o'ziga xos erkaliklari bilan boshlanadi. Zero, bu ularning kuni, o'lam-olam shodliklardan zavq oladigan, intiqib kutilgan bayrami. Poytaxtimizda bu yil 1-iyun — Xalqaro bolalar kuni G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida ilk bor tashkil etilgan “Bolalar kitob festivali” bilan yanada ko'tarinkilik kasb etdi.

o'zbek va xorij adabiyotlari ko'rgazma-yarmakalari, kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlar, estrada xonandalarining chiqishlari, kutubxonalarga sayohatlar, turli tanlov, aksiyalar, mahoratli aktyorlar ishtirokida kitob targ'iboti va mutolaa o'ld sahna ko'rinishlari, boshqa qator madaniy tadbirlar o'r'in olgan.

Bir-biridan go'zal dizaynga ega kitob ko'rgazmalari aro ko'zimiz quvnab bo'rakannimiz, biro nuqtada hayratimiz yanada ortdi. Bepul kutubxona — BOOK CLUB degan banner ortida ma'lumotnomaga o'xshash qog'ozlarni sanab turgan kamtargina yigitni suhbatga tortdik. U faoliyat yuritayotgan bepul

“KITOBSEVAR MILLAT”

umummilliy g'oyasining ro'yobi yo'lida

Boqqa kirar ekansiz, oyoq bosishga-da qiyinlik tug'diradigan gavjumlikdan aslo asabiylashmaysiz. Aksincha, shu gavjum oqim sizni kitoblar ko'rgazmasi tomon yetaklab borishidan quvonasiz. O'ylaganimizdek, “Bolalar kitob festivali”ning ochilish marosimiga jam bo'lgan bolajonlarning sanog'i yo'q. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan sovg'a tariqasida ular uchun olib kelingan kitoblar kimlagadir yetmay qolgani ham ajablanarli emas. Zero, kitob olish uchun cho'zilgan qo'llar orasida bittaga qanoat qilmaganlari ham bo'ladi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi farmoni bilan tas-

nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tayotgan “Bolalar kitob festivali” bayram dasturi ham ana shunday tadbirlarning uzviy davomidir. Festivalning ochilish marosimida so'zga chiqqanlar bu tadbirni har yili an'anaviy tarzda tashkil etish, shu asosda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli va unumli o'tkazishga qaratilgan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, kitob-ko'rgazma yarmakalari, she'rxonlik va mutolaa kechalari, ekskursiyalar, aksiyalar o'tkazish maqsad qilingani haqida alohida to'xtaldi.

— Bu galgi bayram doimgidan ajoyib bo'lyapti. Festival Toshkent shahrida 3 kun davom etadigan bo'lsa,

Tadbir davomida Mehribonlik uylari, oilaviy bolalar uylari, “SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasi filiallari, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun maxsus kitob aksiyalari o'tkaziladi. — Festival doirasida barcha turdagi kitoblarimizga 10 foizli chegirma belgiladik. Shuningdek, 2 ta aksiya bilan ishtirok etyapmiz. Birinchisi, 7 ta kitobdan iborat 190 ming so'mlik to'plam. Ikkinchisi, 14 xil kitobni jamlagan 145 ming so'mlik to'plam. Mazkur to'plamlarimiz 3 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan. Albatta, chegirma va aksiyalarimiz o'ta-onalarda qiziqish



diqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 72-maqsa-di sifatida aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish belgilangan. Bugungi kunga kelib, mazkur g'oya targ'iboti yo'lida mutasaddilar bor salohiyatini ishga solib, mutolaa madaniyatini oshirishga bel bog'ladi. Jumladan, o'tgan davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda mutasaddi tashkilotlar hamkorligida respublika bo'ylab 500 ga yaqin kitob-ko'rgazma yarmakasi, kitobxonlik tanlovi, kitob festivali va boshqa mutolaa ommalashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi, O'zbekiston noshirlari va kitob savdosi tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamkorligida 1-3-iyun kunlari G'afur G'ulom

viloyatlarimizda navbatma-navbat uch oy o'tkaziladi, — deydi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi direktori Umida Teshaboyeva. — Respublikamizdagi 380 dan ziyod nashriyotning barchasida bolalar uchun darsliklar, badiiy va turli mazmundagi boshqa adabiyotlar chop etilyapti. Dunyo yuzini ko'rayotgan har bitta kitob, albatta, bizga yetib keladi va biz orqali bolajonlarga xizmat qiladi.

Shu o'rinda bir xushxabarni aytish joiz. Buyuk Britaniya BBC kompaniyasi-ni Madaniyat departamenti tomonidan bu yil ilk bor eng yaxshi bolalar adabiyoti yuzasidan katta so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada 200 ga yaqin bolalar yozuvchilari, shoirlar, tahririyat vakillari, muharrirlar qatori biz, kutubxonachilar ham qatnashdik. Dunyoda eng zo'r bolalar nashri deb tan olingan asarlar ichida sevimli yozuvchimiz G'afur G'ulomning “Shum bola” asari ham e'tirof etildi. Asar 100 ta eng yaxshi kitoblar orasida 73-o'ringa loyiq topilgani esa o'zbek bolalar adabiyotining yutug'i bo'ladi.

Bayram dasturidan mamlakatimizdagi nashriyotlar tomonidan chop etilgan

uyg'otyapti. Bunday imkoniyatdan unumli foydalanishga harakat qilayotganlar soni ortayotgani quvonarli, — deydi “Akadem-nashr” nashriyotining savdo bo'yicha menejeri Marhabo Jo'rayeva.



Munajat MO'MINOVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetlari tahririyati” DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-646. 41011 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

YANGI O'ZBEKISTON

yuz.uz_news



TAQDIMOT

KELAJAKKA MEROS “OLTIN XAZINA” yoxud yangi nashrdagi izohli lug'atning afzalliklari nimada?

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida yangilangan va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ilk bor chop etilgan “O'zbek tilining izohli lug'ati” taqdimoti o'tkazildi. Unda Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi vakillari, tilshunos olimlar, mutaxassislar, jurnalistlar va yoshlar ishtirok etdi.



— “O'zbek tilining izohli lug'ati” Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabr-dagi “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturiga asosan ilk bor lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida tayyorlandi, — deydi O'zbekiston FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov. — Lug'atdan hozirgi o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan 80 mingdan ortiq so'z va so'z birkimalari, fan, texnika, san'at va madaniyat sohalariga oid terminlar, sheva qo'llaniladigan so'zlar, ba'zi tarixiy va eskirgan atamalar o'r'in olgan.

Anjumanda ijtirok etgan tilshunos olim va mutaxassislar 2020-yilda kirill yozuvida nashr etilgan “O'zbek tilining izohli lug'ati” 5 jilddan iborat bo'lgan bo'lsa, yangi nashr 6 jild va unga 5 mingga yaqin yangi so'zlar kiritilganini ta'kidladi. Ishirokchilar O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romanida muallif ko'hna so'zlardan unumli foydalangan, asardan ajdodlarimiz foydalangan turkiy so'zlarning bir nechta izohli lug'atga kiritilgani haqida aytib, adibdan romanning o'ziga xos tilini shakllantirishda qaysi lug'at va asarlardan ilhom olgani haqida gapirib berishini so'radi.

— Tarixiy asar yaratish jarayonida qariyb bir yarim ming yil avvalgi davrning ruhini jonlantirish uchun bugunimiz kishilariga tushunarli bo'ladigan, sharqirab oqayotgan zilolday toza, musaffo turkiy tilga ehtiyoj tug'iladi, albatta, — dedi yozuvchi Isajon Sulton. — Shu sababli, “Bilga hoqon” asarining yozilishida ham, tahrir jarayonida ham undagi arab va fors so'zlari o'r'niga o'z tilimizdagi muqobilini tanlab, qo'yib chiqishga to'g'ri keldi. Chunki “va”, “ham” yoki “handa”, “tomon”, “taraf”, “janub”, “shimol”, “daryo” kabi bir qator so'zlar o'r'niga asl turkiy so'zni topish zarurati paydo bo'ldi. Misol uchun, “men va sen” o'r'niga “men bilan sen” deyilsa, til jonlanganday bo'ladi. “Tomon”ni ajdodlarimiz “bo'lung”, “taraf”ni “yon”, “daryo”ni “suv” deb atagan, qolgan so'zlar shular atrofida uyushgan. Masalan, “oqar suv”, “turg'un suv”, ya'ni ko'l, suvloq, suvchi, suvlamoq... Shu bilan birga, qadimgi aytim va maqollar ham yordamga keldi. Misol uchun, qor momaqaldiroq bilan yog'sa, qish bola tashladi, deyilgan ekan. Yoki yoz kunida yomg'ir yog'sa, “bo'ri bolaladi”, oy atrofida halqa hosil bo'lsa, “oy qo'rg'onladi”, deysiladi. Bunday ko'hna iboralar ona tilimizda ham, turkiy lahjalarida ham bugungi kunga qadar yashab kelmoqda. Albatta, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarlaridagi ko'hna so'zlardan ham foydalanishga to'g'ri keldi.

Anjumanda so'zga chiqqanlar izohli lug'at Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamda G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi hamkorligida tayyorlangani va bu hamkorlik yana davom etishi zarurligini aytib o'tdi.

— Izohli lug'atning dastlabki jildlarini tayyorlashda akademik tilshunos olimlarimiz — Azim Hojiyev, To'ra Mirzayev, Ernest Begmatov bevosita ishtirok etgan, — dedi mazkur lug'atning mas'ul muharrirlaridan biri, filologiya fanlari doktori, professor Durdona Xudoyberganova. — Ustozlarimiz boshlagan ezu an'anani davom ettirib, professor Nizomiddin Mahmudov rahbarligidagi institutimizning tilshunos olimlar guruhi — filologiya fanlari doktori Yorqin Odilov, filologiya fanlari nomzodlari Abduvahob Madvaliyev, Feruza Musa'yeva bilan birgalikda astoydil ish olib bordik. Mazkur lug'at bilan tanishgan kishi yangi O'zbekistonda bo'layotgan islohotlarni, ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlarni yaqqol tasavvur qilishi mumkin. Jarayonda hayotiyot va nabotot olami bilan bog'liq ko'plab xalqona so'zlar lug'atimizga kiritilmaganiga guvoh bo'ldik. Yana bir haqiqat ayon bo'l-diki, o'zbek adabiy tili bilan shevalarimiz o'rtasida yaxshi munosabat o'rnatilgan, ko'pgina yozuvchilarimiz o'zlari yashab ijod etgan hududlardagi shevalarni adabiy tilga olib kirgan ekan. Masalan, O'zbekiston xalq yozuvchilari Said Ahmad va O'kir Hoshimov asarlaridan Toshkent shevasiga xos bo'lgan so'zlarni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev roman va hikoyalardan Surxondaryo vohasiga tegishli so'zlarni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton ijodidagi ko'hna va tarixiy so'zlarni hamda Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan shevalarni topib, lug'atga kiritdik.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yaqin yillarda O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan “O'zbek xalq so'zlari”, “O'zbek tilining katta imlo lug'ati”, “O'zbek tili frazeologik lug'ati”, “O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati”, “O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati”, “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati”, “O'zbek xalq paremlarining sinonimik izohli lug'ati”, “Nonvoychilik termalarining izohli lug'ati” kitoblari ham tayyorlanib, chop etildi.

Ona tilimiz rivoji bobida yangi bosqich sifatida baholanayotgan mazkur nashr taqdimoti taniqli olimlar, yozuvchi va shoirlarning katta bayramiga aylanib ketdi. Chindan ham, bu “akademik nashr” vaqtlar o'tib ayni davrimizdan, millatimiz ma'naviyati va ruhiyatidan, kamolotidan darak berguvchi, kelajakka meros “oltin xazina” — noyob manba bo'lib xizmat qilsa, ajab emas...

Muxtasar TOJIMAMATOVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:15